




TA'LIM VA FAN SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**KASBIY TA'LIM TASHKILOTI
TO'GARAK (JAMOA) RAHBARI**



“Kasbiy ta’lim tashkiloti to‘garak (jamoat) rahbari” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Ta’lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Kasbiy ta'lim tashkiloti to'garak (jamoa) rahbari

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0130



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu kasbiy standart kasbiy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi to'garak rahbarlari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning kasbiy faoliyatini tartibga solishda qo'llaniladi.

Mazkur kasbiy standart Kasbiy ta'lim tashkiloti to'garak (jamoa) rahbarlariga qo'yilgan talablarni qamrab oladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

andragogika – kattalarni o'qitish usullari va texnologiyalarini o'rganish va asoslash bilan shug'ullanadigan fan;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

davlat ta'lim standarti – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

davlat ta'lim tashkiloti – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan tashkilot;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi

tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

kompleks davlat akkreditatsiyasi – o'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashqi baholash natijalariga asoslangan jarayon;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

maxsus davlat akkreditatsiyasi – o'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon;

mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta'lim tashkiloti – davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

pedagog – ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

pedagogik faoliyat – ta'lim berish, tarbiyalash, baholash va rivojlantirishga qaratilgan professional faoliyat;

tajriba – mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida egallanadigan bilimlar va mahoratlar;

tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

tarbiyaviy ish – o‘quvchilar shaxsini shakllantirish va ijtimoiy moslashuvga yo‘naltirilgan faoliyat;

ta‘lim – ta‘lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta‘lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta‘lim dasturi – tegishli kasblar, ta‘lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar bo‘yicha davlat ta‘lim standartlari (talablari) va kasbiy standartlarga muvofiq kompetensiya va o‘quv natijalari, ta‘lim mazmuni, hajmi va baholash talablarini belgilovchi o‘quv-me‘yoriy hujjat;

ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta‘lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta‘lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

o‘quv dasturi – kasbiy ta‘limning o‘quv rejasiga kiritilgan fanlarning mazmuni, uning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan hujjat;

o‘quv fani – kasbiy ta‘lim tashkilotlarida o‘rganish uchun fan, texnika, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o‘quv va ko‘nikmalar tizimi;

o‘quv jarayoni grafigi – ta‘lim jarayonining ketma-ketligi va almashuvchanligini, attestatsiya va ta‘til vaqtlarini belgilovchi hujjat;

o‘quv reja – kasbiy ta‘limning muayyan ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslari hamda ularni o‘rganish izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat;

xalqaro akkreditatsiya – akkreditatsiya tashkilotlari reyestriga kiritilgan xalqaro ta‘lim sifatini ta‘minlash tarmoqlarining to‘la huquqli a‘zosi bo‘lgan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan ta‘lim dasturlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish jarayoni.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ-901-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta‘limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta‘lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi 275-son “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori O‘zMst 640:2025 (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 3-martdagi 4-q/q-son, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 28-fevraldagi 8/1-2025-Q-son va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 3-martdagi 236-son qarori;

O'zbekiston standartlar institutining 2025-yil 18-iyuldagi № 94/MSt-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025).

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

DTS – Davlat ta'lim standartlari;

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Kasbiy ta'lim tashkiloti To'garak(jamoa) rahbari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Kasbiy ta'lim sohasida muayyan kasb bo'yicha o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ularning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ijodiy va amaliy faoliyatini rivojlantirish hamda kelajak kasbiga yo'naltirish.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	Q seksiya: Ta'lim 85 Ta'lim 85.5 Ta'limning boshqa turlari 85.59 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'limning boshqa turlari 85.59.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'limning boshqa turlari 85.6 Ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat 85.69 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat 85.69.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Ta'lim oluvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish, ularning o'quv natijalariga erishishini ta'minlash, samarali pedagogik sharoitlarni yaratish, ta'lim jarayonini chuqurlashtirish va individual ehtiyojlarini qondirish, to'garak mashg'ulotlari orqali amaliy tajribani oshirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarning maqsadli va sifatli ta'lim olishlarini ta'minlash.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		23599004 To'garak (jamoa) rahbari	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	23599004 - To'garak (jamo'a) rahbari	A1.5	Ta'lim faoliyatni tashkil etish va olib borish	A1.01.5	To'garak yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlar rejasini (yillik, oylik) tuzish va o'quv dasturini ishlab chiqish, rasmiylashtirish
				A1.02.5	O'quvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish
				A1.03.5	Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash va nazariy, amaliy mashg'ulotlarni uyg'un olib borish
		A2.5	Tarbiyaviy ishlarni olib borish	A2.01.5	To'garakka o'quvchilarni qiziqishiga ko'ra jalb qilish
				A2.02.5	O'quvchilarda kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish
		A3.5	Nazorat va baholash faoliyatini tashkil etish	A3.01.5	O'quvchilarning bilimini baholash mezonlarini ishlab chiqish
				A3.02.5	Natijalarni tahlil qilish va o'quvchilarga individual tavsiyalar berish
		A4.5	Hujjatlar bilan ishlash faoliyatini ta'minlash	A4.01.5	To'garak jurnali va hisobotlarni yuritish
				A4.02.5	Davomat va natijalarni qayd etish
		A5.5	Kasbiy rivojlanish va pedagogik faoliyatni takomillashtirish	A5.01.5	Malaka oshirish kurslarida ishtirok etish
				A5.02.5	Zamonaviy texnologiyalarni o'rganish
				A5.03.5	Tajriba almashish (seminar, konferensiyalar) o'tkazish va qatnashish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	To'garak (jamo'a) rahbari
Mashg'ulot nomining kodi:	23599
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kamida to'garak yo'nalish bo'yicha 1 yil amaliy tajriba yoki qisman pedagogik tajriba
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>To'garak mashg'ulotlari ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;</p> <p>To'garak mashg'ulotlarini tasdiqlangan dastur va rejalarga muvofiq sifatli tashkil etishi va o'tkazishi;</p> <p>Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi;</p> <p>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion usullaridan foydalanishi;</p> <p>O'quvchilarning psixologik va individual xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini inobatga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun sharoit yaratishga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;</p> <p>O'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib borishi;</p> <p>O'quvchilarning ijodiy va amaliy faoliyatini tashkil etishi;</p> <p>Loyiha, startap, model, maket va amaliy ishlanmalarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyatni olib borishi;</p> <p>O'quvchilarning ijodiy mahsulotlarini shakllantirish va namoyish etishi;</p> <p>Ko'rgazma, tanlov, konsert, festival va musobaqalarda o'quvchilar ishtirokini tashkil etishi;</p> <p>O'quvchilarning kasbiy qiziqishi, tashabbuskorligi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishi;</p> <p>Qiziqish va amaliy faoliyatga asoslangan rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish;</p> <p>O'z malakasini muntazam oshirib borishi va belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tishi;</p> <p>Ta'lim tashkilotining ustavi, ichki mehnat tartibi qoidalari va pedagogik etika me'yorlariga rioya etishi;</p> <p>Majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.</p>
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	Mavjud emas
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	To'garak rahbari (kasbiy ta'lim tashkilotida)

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Oliy ma'lumotli o'qituvchi
	6	Katta o'qituvchi
	6	Yetakchi o'qituvchi
	6	Bosh o'qituvchi
	6	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida kasb ta'limi ustalari
	6	O'rta-maxsus ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari
	5	O'rta-maxsus ma'lumotli mutaxassislari
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.5 - Ta'lim faoliyatni tashkil etish va olib borish	A1.01.5 - To'garak yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlar rejasini (yillik, oylik) tuzish va o'quv dasturini ishlab chiqish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. To'garak yo'nalishi bo'yicha yillik va oylik mashg'ulotlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlashga taqdim etish
		2. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni belgilangan jadval asosida o'tkazish
		3. O'quv dasturini o'quvchilarning ehtiyojlari va darajasidan kelib chiqib shakllantirish
		4. O'quv dasturi mazmunini mehnat bozori talablari asosida yangilab borish
		5. Mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy materiallar, ko'rgazmali vositalar va topshiriqlarni ishlab chiqish
		6. Mashg'ulot jarayonida individual yondashuvni qo'llash va o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash
		7. To'garak faoliyatini hisobot va hujjatlar (reja, dastur, natijalar) asosida yuritish
		8. O'quv jarayonini takomillashtirish maqsadida tahlil qilish va natijalar asosida tuzatishlar kiritish
		9. O'quv mashg'ulotlarida xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta'minlash
		Ko'nikmalar:
		O'quv reja va dasturlarni tuzish
		Ta'lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etish
		O'quv-uslubiy materiallar va amaliy topshiriqlarni ishlab chiqish
		Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash
		O'quvchilar ehtiyojini tahlil qilish va moslashtirish
		Ta'lim jarayonini tahlil qilish va takomillashtirish
		Amaliy mashg'ulotlarda texnika va xavfsizlik qoidalarini qo'llash
		Bilimlar:
To'garak faoliyati yo'nalishiga oid nazariy asoslari		

		O'quv dasturlarini ishlab chiqish tamoyillari
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari
		Pedagogik faoliyatning asosiy tamoyillari
		O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, ularni ma'lumotni qabul qilishi, o'rganishi va qiziqish xususiyatlari
	A1.02.5 - O'quvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish	Mehnat harakatlari:
		1. O'quvchilar bilan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish
		2. Mashg'ulotlarda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish
		3. O'quvchilarning individual rivojlanishini kuzatish va qo'llab-quvvatlash
		4. Kasbiy loyiha yoki topshiriqlar orqali o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini oshirish
		5. O'quvchilarni mustaqil va ijodiy faoliyatga jalb etish orqali amaliy tajribasini rivojlantirish
		Ko'nikmalar:
		O'quvchilarda kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish
		Amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish
		Individual yondashuvni qo'llash
		O'quvchilarning bilimini baholash va tahlil qilish
		Bilimlar:
		Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish yo'llari
		Ta'lim metodikalari va o'quv dasturlari asoslari
		O'quvchilarning o'rganish jarayonini nazorat qilish tamoyillari
		Pedagogik psixologiya va o'quvchilarning individual xususiyatlari
	Ta'lim metodikalari va o'quv dasturlari asoslari	
	A1.03.5 - Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash va nazariy, amaliy mashg'ulotlarni uyg'un olib borish	Mehnat harakatlari:
		1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlari, ta'lim samaradorligini oshirish usullarini qo'llash
		2. Nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish
		3. O'quv jarayonida interaktiv va praktikum elementlarini joriy etish
		4. O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va motivatsiyasini oshirish
		Ko'nikmalar:
		Innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanlash va qo'llash
	Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish	

		Interaktiv metod va vositalardan samarali foydalanish
		Mashg'ulotlarni rejalashtirish va optimallashtirish
		Bilimlar:
		Innovatsion pedagogik texnologiyalar nazariyasi, zamonaviy ta'lim yondashuvlari va modellari
		Interaktiv va ilg'or o'qitish usullari, faol va ishtirokchiga yo'naltirilgan metodlar
		O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash metodlari, baholash, diagnostika va tahlil usullari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. To'garak faoliyatini mustaqil rejalashtirish, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ularni mehnat bozori hamda o'quvchilar ehtiyojidan kelib chiqib takomillashtirish uchun mas'ul
		2. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil etish, o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va natijalari uchun mas'ul
		3. O'quvchilar bilan ishlashda individual yondashuvni qo'llash, ularning bilim, ko'nikma va ijodiy faoliyatini rivojlantirishni mustaqilligi
		4. Mashg'ulotlar jarayonida mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va sanitariya qoidalariga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul
A2.5 — Tarbiyaviy ishlarni olib borish	A2.01.5 - To'garakka o'quvchilarni qiziqishiga ko'ra jalb qilish	Mehnat harakatlari:
		1. O'quvchilar qiziqishlarini aniqlash maqsadida suhbat va so'rovlar o'tkazish
		2. To'garak yo'nalishi bo'yicha targ'ibot va tanishtiruv ishlarini olib borish
		3. Qiziqish va qobiliyatiga mos holda o'quvchilarni to'garakka jalb etish
		4. To'garakka yangi a'zolarini qabul qilish va guruhlarini shakllantirish
		Ko'nikmalar:
		O'quvchilar qiziqishini, qobiliyati va ehtiyojlari aniqlash va tahlil qilish
		Targ'ibot va o'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqish va ichki motivatsiyani shakllantirish
		O'quvchilar bilan ochiq, ishonchli va samarali muloqot o'rnatish
		O'quvchilarni faol ishtirokka jalb etish va kasbiy yo'naltirish
		Bilimlar:
		O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari
O'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlash metodlari, diagnostika va tahlil usullari		
Samarali muloqot va ichki motivatsiya usullari		

		To'garak faoliyatini tashkil etish tamoyillari, rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish asoslari
	A2.02.5 - O'quvchilarda kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish	Mehnat harakatlari:
		1. O'quvchilarda kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar tashkil etish
		2. O'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini rivojlantirish
		3. Jamoada ishlash va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish
		4. O'quvchilarning individual rivojlanishini kuzatish va qo'llab-quvvatlash
		5. O'quvchilarda vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish
		6. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish
		7. O'quvchilarning muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish
		8. O'quvchilarni o'z-o'zini rivojlantirish va uzluksiz ta'limga yo'naltirish hayot davomida o'qish ko'nikmasi
		9. Ijtimoiy va kasbiy muhitga moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish, ya'ni mehnat bozori va jamiyatga integratsiyasini rivojlantirish.
		Ko'nikmalar:
		Kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish
		O'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish
		Tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda yechim topishga yo'naltirish
		Sun'iy intellekt va raqamli vositalardan foydalanish
		Jamoaviy ishlashni tashkil etish
		Individual yondashuvni qo'llash
		Bilimlar:
		Kompetensiyaviy yondashuv asoslari
		Tanqidiy fikrlash va muammoli o'qitish metodlari
		Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asoslari
		Shaxs rivojlanishi va pedagogik psixologiya
		Kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish usullari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1.O'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlarini mustaqil aniqlash, ularni kasbiy yo'naltirish hamda to'garak faoliyatiga jalb etish natijalari uchun mas'ul
		2.O'quvchilarda kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan

		<p>mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik, raqamli va interaktiv texnologiyalar asosida mustaqil tashkil etish va samaradorligini ta'minlash uchun mas'ul</p> <p>3.O'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, tanqidiy fikrlashi hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirish uchun javobgar</p> <p>4.O'quvchilarning individual rivojlanishini monitoring qilish, ularni ijtimoiy va kasbiy muhitga moslashtirish, vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy faoliyatni mustaqil olib borish uchun mas'ul</p>
<p>A3.5 - Nazorat va baholash faoliyatini tashkil etish</p>	<p>A3.01.5 - O'quvchilarning bilimini baholash mezonlarini ishlab chiqish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish 2. Baholash mezonlarini to'g'arak yo'nalishi va o'quv dasturiga moslashtirish 3. Nazorat va baholash shakllarini (test, amaliy topshiriq, loyiha) belgilash 4. Baholash natijalarini hujjatlashtirish va monitoring qilish 5. Baholash natijalari asosida o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritish 6. Shaffof va adolatli baholash muhitini ta'minlash 7. Zamonaviy baholash vositalari va raqamli tizimlardan foydalanish <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Baholash mezonlarini ishlab chiqish va qo'llash</p> <p>O'quvchilar bilimini obyektiv baholash</p> <p>Turli baholash usullaridan foydalanish</p> <p>Natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish</p> <p>Kompetensiyaga asoslangan baholashni amalga oshirish</p> <p>Raqamli baholash vositalaridan foydalanish</p> <p>Teskari aloqa berish va rivojlantiruvchi baholashni qo'llash</p> <p>Baholashda adolat va shaffoflikni ta'minlash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>O'quv natijalarini baholash va diagnostika usullari</p> <p>Ta'limda baholash tamoyillari, mezonlari va usullari</p> <p>Test va amaliy baholash metodikasi</p> <p>O'quv natijalarini tahlil qilish asoslari</p> <p>Kompetensiyaviy baholash yondashuvi va mezonlari, zamonaviy baholash uslublari</p> <p>Baholashda xatoliklar va ularni oldini olish usullari</p> <p>Teskari aloqa va refleksiya usullari</p>

	<p>A3.02.5 - Natijalarni tahlil qilish va o'quvchilarga individual tavsiyalar berish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p>
		<p>1. O'quvchilarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashiga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish</p>
<p>2. O'quvchilarning mustaqil va jamoaviy faoliyatini tashkil qilish</p>		
<p>3. Loyiha, model, maket, ijodiy ish va boshqa amaliy mahsulotlar yaratish jarayonini boshqarish</p>		
<p>4. O'quvchilar faoliyati natijalarini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish</p>		
<p>5. Tanlov, ko'rgazma va boshqa ijodiy tadbirlarda o'quvchilar ishtirokini tashkil etish</p>		
<p>Ko'nikmalar:</p>		
<p>O'quvchilarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish</p>		
<p>Loyiha, model, maket va ijodiy ishlar yaratish faoliyatini tashkil etish</p>		
<p>O'quvchilarning yakka va jamoaviy faoliyatini muvofiqlashtirish</p>		
<p>Faoliyat natijalarini tahlil qilish va taqdim etish</p>		
<p>Ijodiy va amaliy faoliyat natijalarini baholash</p>		
<p>Bilimlar:</p>		
<p>Ta'lim natijalarini tahlil qilish metodlari</p>		
<p>Loyiha va amaliy faoliyatni tashkil etish asoslari</p>		
<p>Individual yondashuv tamoyillari</p>		
<p>Ijodiy va amaliy mahsulotlar yaratish texnologiyalari</p>		
<p>O'quvchilar rivojlanishini monitoring qilish usullari</p>		
<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p>	<p>1. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash mezonlarini mustaqil ishlab chiqish, ularni o'quv dasturi va to'garak yo'nalishiga moslashtirish hamda baholash natijalarining obyektivligi uchun mas'ul</p>	
	<p>2. O'quvchilarning nazariy bilimlari, amaliy va ijodiy faoliyati natijalarini tahlil qilish, monitoring olib borish hamda natijalar asosida individual tavsiyalar va rivojlantiruvchi teskari aloqa berishni mustaqil amalga oshirish uchun mas'ul</p>	
	<p>3. Nazorat va baholashning zamonaviy shakllari, raqamli vositalari hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash usullaridan foydalanish, baholash jarayonida adolat va shaffoflikni ta'minlash uchun mas'ul</p>	
	<p>4. O'quvchilarning yakka va jamoaviy faoliyatini, loyiha va ijodiy ishlarini tashkil etish, ularning natijalarini baholash va takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni mustaqil olib borish</p>	

A4.5 - Hujjatlar bilan ishlash faoliyatini ta'minlash	A4.01.5 - To'garak jurnali va hisobotlarni yuritish	Mehnat harakatlari:
		1. To'garak jurnali va tegishli hujjatlarni muntazam va to'g'ri yuritish
		2. O'quvchilarning rivojlanish natijalari va ishtirokini hujjatlar asosida monitoring qilish
		3. Hisobot ma'lumotlarini tahlil qilish va xulosalar chiqarish
		Ko'nikmalar:
		Hujjatlarni yuritish va rasmiylashtirish ko'nikmasi
		Ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtrish
		Tahliliy hisobotlarni shakllantirish, ko'rsatkichlar bilan ishlash va hisobot tayyorlash
		Bilimlar:
		Hujjat yuritish tartibi va qoidalari
		Hisobot shakllari va ularni rasmiylashtirish talablari
		Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish usullari
		Tashkiliy va nazorat hujjatlari bilan ishlash asoslari
	A4.02.5 - Davomat va natijalarni qayd etish	Mehnat harakatlari:
		1. O'quvchilarning davomatini muntazam ravishda qayd etib borish
		2. Mashg'ulot natijalari va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini hujjatlashtirish
		3. Davomat va natijalar bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish
		4. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tegishli choralar ko'rish
		Ko'nikmalar:
		Davomat va natijalarni aniq qayd etish
		Ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtrish
		Hujjatlar bilan ishlashda aniqlik va tartibliqlik
		Monitoring olib borish
		Bilimlar:
		Davomatni yuritish tartibi va usullari
		O'quv natijalarini qayd etish metodikasi
	Ta'lim jarayonini monitoring qilish asoslari	
Ichki hujjatlar va hisob yuritish qoidalari		
Mas'uliyat va mustaqillik:	1.Hujjatlarni yuritish va hisobotlarni rasmiylashtirish uchun mas'ul bo'lish	
	2.O'quvchilar davomatini va o'zlashtirish natijalarini muntazam monitoring qilishni mustaqil amalga oshirish	
	3.Tahliliy ma'lumotlarni qayta ishlash, umumlashtrish va xulosa chiqarish uchun mas'ul bo'lish	
	4.Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tegishli choralarni mustaqil belgilash va amalga oshirish	
	5.Hujjatlar bilan ishlashda aniqlik, tartibliqlik va ishonchlilikni ta'minlash uchun mas'ul bo'lish	

A5.5 - Kasbiy rivojlanish va pedagogik faoliyatni takomillashtirish	A5.01.5 - Malaka oshirish kurslarida ishtirok etish	Mehnat harakatlari:
		1. Kasbiy faoliyatiga oid malaka oshirish kurslarini aniqlash va tanlash
		2. Malaka oshirish kurslarida muntazam ishtirok etish
		3. Kurs davomida olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyotga joriy etish
		4. Malaka oshirish natijalarini tahlil qilish va faoliyatida qo'llash
		Ko'nikmalar:
		O'z kasbiy rivojlanishini rejalashtirish
		Yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish
		O'rganilgan tajribani amaliyotga tatbiq etish
		O'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish
	Bilimlar:	
	Kasbiy rivojlanish va uzluksiz ta'lim tamoyillari	
	Ilg'or o'qitish usullari va metodikalari	
	Kasbiy faoliyatni tahlil qilish va o'z-o'zini rivojlantirish usullari	
	A5.02.5 - Zamonaviy texnologiyalarni o'rganish	Mehnat harakatlari:
		1. Kasbiy faoliyatda qo'llash uchun yangi texnologiyalarni o'rganish
		2. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya vositalarini sinovdan o'tkazish
		3. O'rganilgan texnologiyalarni mashg'ulotlar jarayonida qo'llash
		4. Texnologiyalarni qo'llash tajribasini tahlil qilish va takomillashtirish
		5. Sun'iy intellekt vositalarini (AI) o'quv jarayoniga moslashtirish va qo'llash
6. Raqamli platformalar va onlayn ta'lim vositalarini integratsiya qilish		
7. Texnologiyalardan foydalanishda axloqiy me'yorlar va axborot xavfsizligini ta'minlash		
8. O'quvchilarni AI va raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish		
Ko'nikmalar:		
Sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish ko'nikmasi		
Zamonaviy texnologiyalarni tanlash va o'zlashtirish		
O'quv jarayoniga texnologiyalarni tatbiq etish		
Innovatsion va raqamli vositalardan samarali foydalanish		
Texnologiyalar qo'llanilishining natijalarini tahlil qilish		
Axborot xavfsizligi va raqamli etikani ta'minlash		

		Bilimlar:
		Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nazariyasi
		Sun'iy intellekt asoslari va ta'limdagi qo'llanilishi
		Raqamli ta'lim platformalari va onlayn o'qitish tizimlari
		Axborot xavfsizligi va raqamli etika tamoyillari
		Texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish usullari
		O'quvchilarning texnologiyalar orqali o'rganish jarayoni
		Innovatsion va raqamli vositalarning pedagogik afzalliklari
	A5.03.5 - Tajriba almashish (seminar, konferensiyalar) o'tkazish va qatnashish	Mehnat harakatlari:
		1. Kasbiy tajriba almashish maqsadida ochiq darslar, seminar va konferensiyalarni tashkil etish
		2. Seminar va konferensiyalarda faol ishtirok etish
		3. Olingan bilim va tajribalarni o'z faoliyatiga tatbiq etish
		4. Tadbir natijalari asosida o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish
		Ko'nikmalar:
		Seminar va konferensiyalarni tashkil etish
		Kasbiy tajriba almashish va muloqot qilish
		Olingan bilim va tajribani amaliyotga joriy etish
		Tadbir natijalarini tahlil qilish va xulosalar chiqarish
		Bilimlar:
		Seminar va konferensiyalarni o'tkazish metodikasi
		Kasbiy tajriba almashish tamoyillari
Olingan tajribani pedagogik jarayonga tatbiq etish usullari		
Ta'lim sifatini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish prinsiplari		
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. To'garak mashg'ulotlarini tasdiqlangan yillik va oylik reja hamda o'quv dasturlari asosida sifatli tashkil etish uchun mas'ul.	
	2. Amaliy va nazariy mashg'ulotlarda mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul.	
	3. To'garak faoliyati davomida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda mustaqil pedagogik va tashkiliy qarorlar qabul qilish	
	4. Mashg'ulotlarni olib borishda va to'garak faoliyatini rejalashtirish hamda takomillashtirishdagi mustaqillik	
	5. To'garak faoliyatining natijalarini tahlil qilish va rahbariyatga hisobotlar taqdim etish bo'yicha mas'uliyat	

		6. O'z kasbiy rivojlanishini ta'minlash va yangi pedagogik metodlarni amaliyotga joriy etish uchun mustaqillik
Texnik va/yoki texnologik talab:		<p>Noutbuk, shaxsiy kompyuter, proyektor, interaktiv doska, Internet, Kompyuter savodxonligi: Microsoft Office dasturlarini (Word, Excel, PowerPoint), elektron pochta, fayllarni tizimlashtirish, USB, printer, skaner;</p> <p>Onlayn darslar uchun Zoom, Google Teams kabi platformalardan, mashg'ulotlarda video ta'lim vositalari;</p> <p>Proyektor, interaktiv doska, elektron jurnallardan foydalanish tizimlari;</p> <p>Fan sohasi bo'yicha zamonaviy texnologiyalari: ta'lim berayotgan fan yo'nalishda qo'llaniladigan zamonaviy uskunalar va texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlarda texnika xavfsizligi qoidalar;</p> <p>O'quv va ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'liq ko'nikmalar: kasbga oid maxsus uskunalarni ishlatish, laboratoriya ishlari va mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyalari.</p>

V Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Ta'lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 2026-yil 14-apreldagi 3-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0143-son xulosa, 21.05.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 14.05.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	13.05.2026

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti

(tashkilot nomi)

Direktori

Qodirov Xayot Sharipovich

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar) to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchi to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiya, ismi, otasining ismi
1.	Oliy ta'lim tashkilotlari departamenti boshlig'i	Mamanazarov A.A.
2.	Kasbiy ta'lim agentligi direktori o'rinbosari	Sharofaddinov Sh.A.
3.	Kasbiy ta'lim agentligi, Ta'lim jarayonlarini tashkil etish boshqarmasi boshlig'i	Saxibov O.K.
4.	Kadrlar malakasini oshirish, ekologik diplomatiya va akademik litseylar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i	Yuldashev O.A.
5.	Kasbiy ta'lim agentligi, Ta'lim jarayonlarini tashkil etish boshqarmasi bosh mutaxassisi	Ergashev E.K.
6.	Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti boshqarma boshlig'i	Raximov Sh.S.
7.	Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi	Muzaffarov M.N.
8.	Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi	Adxamova M.R.
9.	Samarqand Pedagogika texnikumi direktori	Raximova F.Sh.
10.	Toshkent pedagogika texnikumi direktori	Tadjiyeva M.X.
11.	Toshkent kasb-hunar va tibbiyot texnikumi bosh ijrochi direktori	Nishanov R.I.
12.	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassisi, tarmoq kengashi kotibi	Abdiyev G.E.



**TA'LIM VA FAN SOHASIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TARMOQ KENGASHI**

KASBIY STANDART
KASBIY TA'LIM TASHKILOTI TO'GARAK
(JAMOA) RAHBARI